

## **TERINING ZAMBURUG'LI KASALLIKLARI DERMATOMIKOZ QO'ZG'ATUVCHISI TRIXOFITIYA VA UNING DIAGNOSTIKASI**

**Bahriddinova Dilso'z Fazliddinovna**

**Pr. D Boltayev Komiljon Sultonovich**

**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Samarqand O'zbekiston**

**Samandarbest0123@gmail.comtel:(99)7581028.**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.11548700>**

**Annotatsiyasi:** Terining zamburug'li kasalliklari dematomikozlar deb atalib, ularning 3ta turi bor. Bular trixofitiya, mikrosporiya va epidirmofitiya. Trixofitiyalarning qo'zg'atuvchisi trixofitonlar bo'lib, ko'pincha boshning sochli qismi, teri va tirnoq zararlanadi. Trixofitiyalarning 20 dan ortiq turi bor. Trixofitonlar Saburo muhitida 4-5kundan so'ng g'adir-budur teriga o'xshash, mayda, kukunsimon, kulrang, oq, qora, binafsha, pushti, qizil, ayrimlari yaltiroq kaloniyalar hosil qiladi.

**Kalit so'zlar:** Terining zamburug'li kasalliklari, dermatomikozlar, trixofitiya.

**Tadqiqod maqsadi:** Terining zamburug'li kasalliklarini o'rganish. Dermatomikozlar va ularning turlari, trixofitiyalarning zarari va diagnostikasini o'rganish.

**Tadqiqot natijalar:** Odamda uchraydigan terining zamburug'li kasalliklari, ya'ni dermatomikozlarning 3 xil turi mavjud. Bular trixofitiyalar, mikrosporiyalar va epidirmofitiyalardir. Shulardan trixofitiyalarga keladigan bo'lsak, ular ko'pincha odam boshining sochli qismi, teri va tirnoqni zararlaydi. Trixofitalar o'sishi va morfologiyasi jihatidan bir biridan farq qiladi. Trixofitalarning mitsilliysi ingichka, kalta-kalta shoxlanuvchi septali iplardan tashkil topgan. Trixofitonlar Saburo muhitida 4-5kundan so'ng g'adir-budur teriga o'xshash, mayda, kukunsimon, kulrang, oq, qora, binafsha, pushti, sarg'ish, ayrimlari yaltiroq kaloniyalar hosil qiladi. Trixofitiyalarning yuza va surunkali xillari bo'lib, bular asosan T. tonsurans keltirib chiqaradi. Bu kasallik ko'proq AQSH, Meksika, Janubiy Amerika, shu jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarida uchraydi. Bu kasallik aynan shu kasallik bilan og'rikan bemordan yuqadi. Ularning zamburug'lar bilan shikastlangan sochi, qazg'oqlari, shikastlangan tirnoqning bo'lakchalari yuqumli hisoblanadi. Bunda shaxsiy gigiyena qoidalarga rioya qilmaslik natijasida bu kasallikni yuqtirib olish mumkin. Boshdagi sochda trixofitiyaning 2xil, ya'ni mayda va yirik o'choqli bo'ladi. O'choqlar notekis va tarqoq, yumaloq shaklda bo'lib, yallig'lanish jarayoni bilinmaydi. O'choqlar yuzasi qazg'oq bilan qoplangan bo'lib, sochlar teri sathidan 1-2 mm yuzada sinadi. Bu esa kasallikning asosiy klinik belgisi hisoblanadi.

**Xulosa:** Terining zamburug'li kasalliklarini o'rganish, dermatomikozlarning turlari va trixofitalarning odamga zararini va ularning diagnostikasini o'rganish.

### **References:**

1. Mikrobiologiya, immunologiya va virusologiya
2. I. Muhamedov, E. Eshboyev, N. Zokirov, M. Zokirov. Mikrobiologiya
3. Sh. R. Aliyev, I. M. Muhamedov, Z. A. Nuruzova, Sh. A. Xo'jayeva, A. M. Davurov, F. X. Rasulov.
4. <https://uz.m.wikipedia.org>.
5. [https:// sinaps.uz](https://sinaps.uz).
6. <https://mymedic.uz>